O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISHDA SAVOL-JAVOB DISKURSINING AHAMIYATI

Normamatova Dilfuza Turdikulovna
Dotsent, PhD
Guliston davlat pedagogika institute

Abstract: This article analyzes the role and significance of interrogative pronouns in developing students’ oral speech skills during the process of teaching English. It highlights the possibilities of using interrogative pronouns (Who, What, Which, When, Why) to foster students’ communicative competence, independent thinking, and speech activity. The article demonstrates the semantic and syntactic features of interrogative pronouns, their Uzbek equivalents, and effective methods of applying them in the learning process through practical examples. In particular, it discusses ways to enhance students’ logical thinking and reinforce their grammatical and lexical skills through question-and-answer exercises. According to the findings, systematic use of interrogative pronouns serves as an effective means of improving students’ oral communication skills.

Keywords: interrogative pronouns, oral speech, communication, question-and-answer exercises, English teaching methodology, grammatical competence, speech activity, learning process.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitish jarayonida so‘roq olmoshlarining o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. So‘roq olmoshlari (Who, What, Which, When, Why) yordamida o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlash va nutqiy faoliyatni faollashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada so‘roq olmoshlarining semantik-sintaktik xususiyatlari, ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari hamda o‘quv jarayonida ulardan samarali foydalanish metodlari amaliy misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Xususan, savol-javob mashqlari orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, grammatik va leksik ko‘nikmalarni mustahkamlash yo‘llari bayon etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘roq olmoshlaridan tizimli foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: so‘roq olmoshlari, og‘zaki nutq, muloqot, savol-javob mashqlari, ingliz tili o‘qitish metodikasi, grammatik ko‘nikma, nutqiy faoliyat, o‘quv jarayoni.

Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni tobora o‘sib, xalqaro aloqalar, savdo – sotiq, turizm va mamlakatlar orasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga ingliz tilini puxta o‘rgatish va horijliklar bilan muloqat davomida o‘ziga taalluqli masalalarni erkin muhokama qila olish, umuman, og‘zaki va yozma shaklda muloqat qila olishni o‘rgatish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. [1] Shuningdek, horijiy tillarni o‘rganish jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy va umummadaniy taraqqiyotining omili bo‘lsa, darslar jarayonida muntazam ravishda o‘rgatib borish va aloqa sifatida undan foydalanish ko‘pchilik o‘quvchilarni fanni sevmasliklarini oldini oladi, o‘qitishni jozibador qiladi va o‘quvchini chet tilini o‘zlashtira olishini ta’minlaydi.

So‘roq olmoshlarining semantik sintaktik xususiyatlaridan biri kishi nomlari va boshqa nomlar uchun (hayvonot, parranda va predmetlar) ikki xil ishlatilishidir. Who o‘zbek tilida Kim? Olmoshiga to‘g‘ri keladi va faqat odamlar uchun ishlatiladi. What o‘zbek tilidagi Nima? So‘roq olmoshiga o‘xshash bo‘lib, faqat jonsiz predmetlar, hayvonot va parranda boshqa otlarga nisbatan ishlatiladi [2].

Masalan: *Who came?* *Kim keldi?*
What happened? *Nima bo‘ldi?*

Chet tilini savol – javoblar orqali muvofaqiyatli egallash o‘qituvchiga uning ish metodikasiga, foydalanadigan nutqiy vaziyatiga va studentga bog‘liqdir. O‘qituvchi og‘zaki nutqni o‘stirish ustida ishlar ekan o‘zining ma’lum sistemasiga ega bo‘ladi. Ana shunday sistemaning komponentlaridan biri, talabaning o‘quv qo‘llanmadagi matnga doir savol – javob mashqlarini tashkil qilishdir. O‘z ustida ishlaydigan har bir o‘qituvchi o‘z guruhidagi talabalarning bilim darajasiga, darsni o‘tishda guruh oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra matn ustida ishlashning o‘ziga xos yangi usullarini yarata oladi.

Turli xildagi usullarni yaratishda esa so‘roq olmoshlari eng muhim tayanch so‘z hisoblanib, o‘quvchini ijodiy fikrlashga va matn haqida yetarlicha ko‘nikmaga ega bo‘lishiga undaydi. [5] Quyida darsda o‘tilgan “A Freshmen's experience” matni bo‘yicha talabalar bajargan mustaqil ish topshiriqlaridan namuna sifatida keltiramiz.

1. Matndan nutq namunasini ko‘chirib yozing va shu asosida gap tuzing.

Javob: *“I didn't know that people used to be monkey's, or that George Eliot was a lady”*

2. Yozgan nutq namunangizdan foydalanib matga maxsus savollar tuzing va unga javob qaytaring.

Javob: *Who didn't know that people used to be monkeys, or that George Eliot was a lady?*

What she didn't know?

Whom she didn't know that she was a lady?

Who was Eliot?

Why Judy didn't know that people used to be a monkey? Etc….

Shu kabi misolllar davom etishi mumkin. Yuqorida berilgan savollar gapning turli variantini tuzish uchun xizmat qiladi. Berilgan har bir misoldagi mantiqiy urg‘uga qarab gapdagi fikr maqsad o‘zgarishi ko‘zda tutilgan. O‘quvchilarga mantiqiy urg‘u berishni ham so‘roq olmoshlari yordamida gap tuzish mashqi orqali o‘rgtish mumkin.

Tor doiradagi til vositalaridan foydalanib o‘z fikrlarini bayon qilish va dialogik tarzda nutqni o‘stirish mashqlari ancha muvofaqqiyatli sanaladi. Masalan: Talabalar qisqa matnni tinglab bo‘lgach, undagi yo‘q ma’lumotlarni tiklashga yordam beradigan savollarga javob qaytaradilar ya’ni so‘roq olmoshlari orqali bir – birining voqelikka aloqador bo‘lgan fikrlarini bilib oladilar. Shu munosabat bilan talabalar mana bunday topshiriq oladilar:

Listen to the text and ask questions for more information.

But now when the girls talk about the things that I never heard of, I just keep still and look them up in the encyclopedia. And anyway, I'm just as bright in class as any of the others, and brighter then some of them!

Talabalar matnni tinglagach, o‘zlarini qiziqtirgan lekin matnda tilga olinmagan narsalar haqida so‘ray boshlaydilar. Ushbu jarayonda so‘roq olmoshlarining aktiv ishtiroki va to‘g‘ri qo‘llanilishi talabaning erkin fikrlay olish doirasini kengaytiruvchi asosiy omil hisoblanidi.

1. *Why she used to read encyclopedia?*
2. *Whom did she talk with?*
3. *What made her to be a bright girl?*

Ish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, talabalarni mavzu situatsiya yuzasidan bog‘langan savollar berishga o‘rgatish mashqlarini qo‘llash talabani juft bo‘lib ishlashlarida va mustaqil ishlarni tashkil qilishda qo‘l keladi va sermazmun o‘tadi. Talabaning chet tilida erkin so‘zlay olishi uchun dars turli shakldanutqiy namunalardan valeksik birliklardan foydalanib: dars – teleko‘prik, dars – sayohat, dars – anjuman, “Nima? Qachon? Qayerda?” va shu kabi tashkil

qilinishi mumkin. Bunday darslar orqali o‘quvchilar mavzularni qanday o‘rganganliklarini ko‘ra oladilar va erishilgan yutuqdan mamnuniyat his qila oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim tarraqiyoti” O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi 5 maxsus son. 1999 y.
2. J. Bo‘ronov “Ingliz tili grammatikasi” T – 1978 y
3. V. D. Arakin Prakticheskiy kurs angliyskogo yazika. Moskva – 1999 y
4. Z. M. Musina “Chet tili darslarida nutqiy holatlardan foydalanish” O‘qituvchi 1987
5. B. Jabbarov “ Studentlarning chet tilidan mustaqil ishlari” T – 1987